

O‘ZBEK XALQ CHOLG‘ULARIDA FOLKLOR ASARLARINING O‘RNI (Bolalar musiqa va san’at maktablari misolida)

Madrahimov Mirzohid Mirzabaxramovich

Respublika musiqa va san’at kolleji “Xalq cholğulari” kafedrasida Katta o‘qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalar musiqa va san’at maktablarida o‘zbek milliy cholg‘ularini o‘rganayotgan o‘quvchilar repertuarida xalq kuylarining o‘quvchilar ta’naviyatida tutgan o‘rni hamda ijrochilik ko‘nikmalarining shakllanishidagi ahamiyati nazarda tutilgan.*

V данной статье рассматривается роль народных напевов в репертуаре учащихся, изучающих народные инструменты в детских школах музыки и искусства, в духовности учащихся и значении формирования исполнительского мастерства.

Annotation: *This article examines the role of folk tunes in the repertoire of students studying folk instruments in children’s music and art schools, in the spirituality of students and the importance of developing performing skills.*

Kalit so‘zlar: *xalq kuylari, xalq cholg‘ulari, o‘quvchilar, musiqa, repertuar, ijrochilik ko‘nikmasi, konsert, ta’lim.*

Ключевые слова: *народные напевы, народные инструменты, студенты, музыка, репертуар, исполнительское мастерство, концерт, образование.*

Key Words: *folk tunes, folk instruments, students, music, repertoire, performing arts, concert, education.*

O‘zbek milliy cholg‘ularini o‘zlashtirish dastlab Ustoz-shogird an’analari asosida shakllangan bo‘lsada, hozirgi kunda cholg‘ularda dastlabki ijrochilik sirlarini egallash, bolalar musiqa va san’at maktablarida o‘ziga xos bo‘lgan musiqiy pedagogik uslublar va yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o‘quvchilarga o‘rgatilib kelinmoqda. Bundan tashqari respublika ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari, maxsus ixtisoslashgan litseylar hamda oliy ta’lim muassasalarida ham tashkil etilgan. Shundan ko‘rinib turibdiki, respublikamizda ushbu soha bo‘yicha ya’ni musiqa ijrochilik san’ati bo‘yicha yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimi tashkil etilgan. Bunda, bolalar musiqa va san’at maktablari – Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7avgustda ma’qullangan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. MIRZIYOYEVning 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 2-bob (ta’lim tizimi, turlari va shakllari) 7 va 14-moddalarida ko‘rsatilib o‘tilgan bo‘lib, unda, maktabdan tashqari ta’lim turlariga kiritilgan. Unga ko‘ra, 14-moddasining uchinchi xat boshida ko‘rsatilgandek, maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, “Barkamol avlod” bolalar maktablari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san’at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog‘lomlashtirish muassasalari kirishi belgilab qo‘yilgan (1,8).

Ma’lumki, bolalar musiqa va san’at maktablarida iqtidorli yoshlarni o‘zbek milliy cholg‘ularida o‘qitishda O‘zbekiston respublikasi madaniyat vazirligi, tasarrufidagi

madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish respublika ilmiy-uslubiy markazi tasdiqlagan bolalar musiqa va san'at maktabi "o'zbek xalq cholg'ulari" ta'lim dasturining minimal mazmuni, tuzilmasi va amalga oshirilishiga davlat talablari, namunaviy o'quv reja, namunaviy fan dasturi meyoriy hujjatlari asosida ta'lim jarayoni tashkil etilgan. O'zbek xalq cholg'ulari ta'lim yo'nalishi o'z ichiga cholg'ular kesimida nay, chang, qashqar rubob, dutor, doira, g'ijjak sinflarini qamrab oladi.

Ma'lumot o'rnida nay cholg'usi. Juda qadimiy damli (puflab chalinadigan) musiqa cholg'usi bo'lib, qattiq yog'och tanasidan, bambukdan va ba'zi hollarda metaldan ham yasaladi. Nayda tovush hosil qilish quvurda ochilgan teshik orqali havoni quvurning ochiq tomoniga yo'naltirish orqali hosil qilinadi. Unda bir dona puflanadigan va 6 dona tovush balandligini o'zgartiradigan teshiklar bo'ladi. Unda ijroda ishtirok etmaydigan 2 ta yoki 3 ta teshiklar ham bo'ladi. Nay tabiatan diatonik tovush qatoriga ega bo'lib, zarur bo'lganda tovushlarni ko'tarish va tushirish nay teshiklarini qisman yopish orqali amalga oshiriladi (2,28).

Chang cholg'usi. qadimiy musiqiy cholg'u hisoblansada, bizning hududimizga uning hozirgi ko'rinishida XX asrning boshlarida kirib kelgani haqida ma'lumotlar bor. Changsimon cholg'ular dastlab arfasimon cholg'ularning rivojlanishi ta'sirida, ya'ni turli shakllar (trapetsiyasimon, to'g'ri to'rtburchak)larga ega bo'lgan yashiksimon moslamalar ustiga xarraklarni o'rnatib, ularning ustidan torlarni tortish uslubida paydo bo'lganligi va ularning "nuzxa", "qonun", "rud", "shoxrud" kabi turlari paydo bo'lganligi, keyinchalik "tirnama" uslubida ijro etiladigan mazkur cholg'ularning torlarini tayoqchalar yordamida urish uslubi ixtiro qilinishi ta'sirida changsimon cholg'ularning hozirgi ko'rinishidagi cholg'ular paydo bo'lganligi haqida tarixiy ma'lumotlar bor. Bunday cholg'ular hozirda xitoy, moldavan, rumin, malayziya va boshqa xalqlarda ham uchraydi. Dastlab diatonik tovush qatoriga ega bo'lgan chang musiqiy mutaxassislar va cholg'u ustalari tomonidan takomillashtirilib, xromatik tovush qatoriga keltirilgan (2,30).

Qashqar rubobi. Asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston (hozirgi Xitoyning Uyg'ur Avtonom Okrugidagi Qashqar degan joy nomi bilan bog'liq bo'lsada, o'zbek milliy cholg'ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholg'ulardan hisoblanadi. Musiqani endigina o'zlashtirayotganlarning 50 foizidan ortig'i ana shu cholg'udan foydalanishi ma'lum. Qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo'lib, nisbatan tez o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan cholg'ular qatoriga kiradi (2,31).

Dutor cholg'usi. Tojik tilida ikki tor ma'nosini beradigan, eng sevimli va ommalashgan o'zbek musiqiy cholg'ularidan biridir. Dutor kuylari asosan birinchi torda ijro etilsada, ikkinchi tor o'sha kuyga qo'shilib, doimiy sado berib turishi ushbu cholg'uni boshqa cholg'ulardan ajratib turadi. Shuning uchun ham dutor kuylarini notalashtirilganda har ikkala tordagi notalar ko'rsatiladi. Dutorning sadosi juda mayin bo'lib, tovush tembri baland bo'lmasada quloqqa juda yoqimli va yaxshi eshitiladi (2,32).

Doyra cholg'usi. O'zbek musiqiy ijrochiligida usul (ritm) beruvchi eng asosiy cholg'u hisoblanadi. Doyra ishtirokisiz nafaqat ansambllar yoki orkestr ijrosini, hatto ko'pgina yakka cholg'ular ijrosini ham tashkil etib bo'lmaydi. Doyra O'zbekistonda eng keng tarqalgan musiqiy cholg'ulardan biridir. Doyrada hosil qilinadigan tovushlar tembr jihatidan va

balandlik jihatidan farqlansada, ular ma'lum bir musiqiy balanlikka ega bo'lmaydi va doyrada kuy ijro etib bo'lmaydi. Doyrada hosil qilinadigan bo'g'iq tovush – bum, jarangdor tovush – bak, o'ta jarangdor tovush esa – noxun deb yuritiladi. Doyra partiyasi 4 qatorli nota yo'lida yoziladi. Pastki 2 qatorda o'ng qo'l, yuqoridagi 2 qatorda chap qo'l ijrosi uchun notalar yoziladi (2,36).

G'ijjak cholg'usi. Cholg'usi qadimdan ma'lum bo'lsada, turli nomlar bilan atalib kelgan. Masalan, ba'zi tarixiy asarlarda u “rebab” deb ataladi. Hozirda ham arablar uni rebab deyishadi. G'ijjakning hozirgi ko'rinishdagi tasviri XIV asrda noma'lum muallif tomonidan yaratilgan “Kanz al-Tuhaf” asarida berilgan. Unda tasvirlangan g'ijjak (Farmerning ta'rificha- O.T.) yarim shaklida bronzadan tayyorlangan va teri bilan qoplangan kosaxonaga, metalldan tayyorlangan tizzaga qo'yish moslamasiga, pista, yong'on yoki mustahkam qora daraxtdan yasalgan dastaga ega bo'lgan. G'ijjakning 2 ta tori bo'lib, ular kvinta oralig'ida sozlangan. G'ijjakda asosiy torlarga qo'shimcha 7 donagacha rezonator torlari ham bo'lgan. G'ijjaksimon cholg'ularning yana bir turi “kemancha” bo'lib, uning kosaxonasi g'ijjaknikidan ancha kichik bo'lgan.

Ushbu cholg'ularni o'zlashtirish uchun O'zbekiston respublikasi madaniyat vazirining 2019-yil 30-dekabrda “Bolalar musiqa va san'at maktablarining ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejalarini hamda o'quv rejalariga tushuntirishlarini tasdiqlash to'g'risida”gi 766-sonli buyrug'iga asosan mutaxassislik fanini to'rt yil haftasiga 2 soatdan va beshinchi yil haftasiga 3 soatdan (1 o'quv yilida 34 hafta, yakka mashg'ulot), jami 374 soat belgilab berilgan (3,5). Mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan o'quv rejaları xalqaro standartlarga mos keladi.

O'zbek xalq cholg'ulari ta'lim yo'nalishining yuqorida ko'rsatilgan barcha cholg'ular bo'yicha sinflar kesimida fan dasturlari o'rganilganda ushbu cholg'ularni o'zlashtirish bo'yicha tavsiya etilgan asarlar ro'yxatida cholg'u ijrochilik ko'nikmasiga ega bo'lish uchun asarlar to'g'ri tanlangan. Biroq, ushbu cholg'u ijrochiligini o'zlashtirishda tavsiya etiladigan asarlar ro'yxatini yangidan kengroq shakllantirish maqsadida folklor asarlarini birinchi sinfdan beshinchi sinfgacha murakkablik darajasi bo'yicha kiritma maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bunda cholg'u bo'yicha yetuk mutaxassislar, ilmiy tatqiqotchilar, oliy ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan professor-o'qituvchilar va kompozitorlar o'zbek milliy cholg'ulari bo'yicha yangi avlod adabiyotlarini yozishda folklor asarlarini notalashtirib, cholg'ularga mos ravishda ya'ni ijrochilik shtrixlari, pozitsiya, applikatorlar joylashuvini aniq ko'rsatib, cholg'ularda ijrochilik imkoniyalarini hisobga olgan holda folklor asarlarini qayta ishlab (ko'p ovozli qilib), yakka va fortepiano jo'rliqida, ansambl va kichik orkestrlarga moslashtirilsa, o'quvchilarda folklor asarlari milliy ijrochilik ko'nikmalari shakllanar edi. Huddi shunday asarlardan namuna qilib aytadigan bo'lsak, Boysun mavrigisi ohanglari asosida O.Karimov va F.Alimov qayta ishlagan “Surxon navolari” asari milliy cholg'ular orkestri uchun qulay va ohangdor bo'lib yozilgan. Ushbu asarni professional darajada ijro qilishda sozandadan milliy melizmlarni ishlata olish, orkestrda boshqa cholg'ularni eshita olish, unda bevosita akkompанament hamda asosiy musiqiy matnga jo'r bo'lish, o'z cholg'usida milliy ritmni va usulni his qilish mahoratini talab qiladi. Folklor asarlari yosh

o'quvchilarda o'ziga xos tarzda o'sha hududning yoki millatning ijtimoiy tarzi, madaniyati va o'ziga xos musiqiy ijrochilik ko'nikmasini yanada shakllantiradi. Bunday hollarda o'quvchilar o'zi tanlangan milliy cholg'ularda musiqiy bezaklarni qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladi. Hududiy ijro uslublaridagi farqlilik va o'xshashlik shu qadar rang-barang-ki, ularning har biri alohida bir mavzuga jo bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Respublikamiz mustaqillikka erishgach boshqa sohalar qatorida milliy musiqamiz, xususan, bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'ulari bo'limida o'quvchilarga milliy cholg'ularimizni o'rgatish sezilarli darajada o'zgardi. O'quvchilar belgilangan o'qish muddatida ijro mahoratiga ega bo'lib, jahon klassik kompozitorlari asarlarini yetarlicha o'zlashtirishmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Shuningdek, o'zbek kompozitorlari qayta ishlagan o'zbek xalq musiqasini ham o'zlashtirib endilikda folklor asarlarini (qayta ishlangan) ham o'zlashtirishsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yana shuni ta'kidlash lozimki milliy xalq kuyqo'shiqlarimiz saqlanib qolishi, balki ularni rivojlantirish va yoshlarga singdirish yo'lida qator salmoqli ishlar amalga oshirilar edi. Folklor kuy-qo'shiqlarining davomiyligini ta'minlashda bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilarining o'rtasida o'tkaziladigan ko'rik-tanlovlar yoki festivallarda albatta folklor kuyqo'shiqlarini keng qamrovda kiritish joiz. Unda o'quvchilar milliy folklor an'analari va qadriyatlarini saqlash, o'rganish, targ'ib etish, rivojlantirish va baxshichilik san'atining davomchilari bo'ladi.

Musiqa vositasida bunday oliyjanob hislatlarni o'quvchilarga singdirishda, dars jarayonida o'quvchilar shug'ullanadigan har bir faoliyat turlaridan unumli foydalanishlari, xalqimiz yaratgan mumtoz musiqalar, folklor asarlar, o'zbekona nola va qochirimlar bilan ijro etishlariga hamda har bir asarni ijro etishda, tinglashda yoki ijro qilishda ijodkorlik ko'rsatib borishlariga alohida ahamiyat berish tavsiya etiladi.

O'quvchilar dars jarayonida doira, rubob, g'ijjak, dutor, nay, chang kabi cholg'u ansambli sozlari hamda nog'ora, karnay, surnay, doira kabi tantanali vaziyatlarda ijro etiladigan kuchli ovozga ega bo'lgan cholg'ular ansambli haqida ma'lumotga ega bo'ladilar. Shuningdek, ular ko'p ovoqli o'zbek xalq cholg'ulari orkestri, uning tarkibiy tuzilishi, o'ziga xos jarangini idrok qiladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/>
2. Toshmatov, O., and S. Turatov. "Ancient musical instruments." (2012).
3. Bolalar musiqa va san'at maktablarining ta'lim yo'nalishlari bo'yicha meyoriy hujjatlari.
4. Sobirjon Turdibekovich Turatov. "Cholg'u ijrochiligi ta'lim yo'nalishida maxsus fanlarining axborot texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi" *Oriental Art and Culture*, vol. 4, no. 3, 2023, pp. 676-680.
5. Туратов Собиржон Турдибекович. "Значение изучаемого репертуара студенческого оркестра узбекских национальных инструментов" *Проблемы современной науки и образования*, no. 10 (155), 2020, pp. 63-65.

6. Turatov Sobirjon Turdibekovich. “Yosh dirijorlarni tarbiyalashda pedagogik tavsiyalar” Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), vol. 1, no. Conference DSMI, 2022, pp. 31-34.
7. Ganisherovich T. J. Teaching of Musical Instruments in Secondary Schools //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 166-169.
8. Ganisherovich T. J. Coverage of chang instruments in historical and musical sources //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 3. – С. 30-33.
9. Javohir G. Musiqa ta’limida metod va usullardan dars jarayonida foydalanish //Oriental Art and Culture. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 954-957.
10. Ganisherovich T. J. Use of methods and techniques in music education //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 7. – С. 44-47.
11. Turatov S. Significance of the student’s orchestra of uzbek national instruments in the educational process of state institute arts and culture of Uzbekistan //Culture and Arts of Central Asia. – 2019. – Т. 11. – №. 1. – С. 55-59.
12. Beknazarov K. Pedagogical conditions for developing musical competence of future music teachers using uzbek folk instruments //current research journal of peDAGOGICS. – 2023. – Т. 4. – №. 06. – С. 101-107.
13. Beknazarov X. bo ‘lajak musiqa o ‘qituvchilarini musiqiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik tamoyillari //Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. – 2023. – С. 104-106.